



INKLYUZIV TA'LIMGA MUHTOJ O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH METODIKASI

Azimova Munisa

SamDCHTI, 2-kurs talabasi

Ingliz tili fakulteti,

Ilmiy rahbar: **Sh.A. Rustamova**

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishning samarali metodlari, yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning til o'rganish jarayonida qo'llanadigan innovatsion metodlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, ingliz tili, individual yondashuv, differensial ta'lim kommunikativ metod, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, pedagogik texnologiyalar;

Kirish

Hozirgi kunda ta'lim tizimida inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar joriy etilmoqda. Inklyuziv ta'lim -bu imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojga ega o'quvchilarning umumiy ta'lim muassasalarida teng sharoitda bilim olishidir. Bunday sharoitda o'quvchilarni o'qitish uchun o'qituvchilardan maxsus metodlardan foydalanish talab etiladi.

Asosiy qism

Individual yondashuv Metodi. Bu metod orqali o'qituvchilardan o'quvchilarning qobiliyatlari ehtiyojlari, o'quvchilar aynan qaysi bosqichda o'rganishda qiynaladigan qismlari va ularning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'qitish talab etiladi. Bunda o'qituvchilar quyidagilardan foydalanishadi.

Har bir o'quvchi uchun alohida reja tuziladi

O'quv materiallari alohida moslashtiriladi

O'qituvchi o'quvchilar uchun individual tarzda yordam beradi

Bu usul o'quvchilarning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlanishi uchun yordam beradi.

Communicative approach. Bu metod orqali o'quvchilar tilni muloqot orqali o'rganishi mumkin. Shuningdek o'qituvchilar bolalar bilan individual tarzda muloqot qilishi va mukammal tarzda til o'rgatishi mumkin.

Oddiy dialoglar

Kundalik suhbatlar

Rolli o'yinlar

Bu usul orqali o'quvchilar tilni qo'llashni va muloqot jarayonida atrofdagilardan chetda qolmaslikni o'rganishadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limga muhtoj o'quvchilarni o'qitishda o'yin texnologiyalari ham samarali hisoblanadi, chunki o'yinlar o'quvchilar qiziqishini oshiradi va qolgan bolalardan ajralmasdan o'qitilishni ta'minlaydi.

Misol uchun; Turli so'z o'yinlaridan foydalanish, Turli xildagi "Matching", mashqlari. Interaktiv o'yinlar - bunday usuldan foydalanish o'quvchilarni zerikmasligini ta'minlab beradi. Shuningdek ular qiziqishini oshirib beradi.



Differensial ta'lim Metodi

Turli darajadagi topshiriqlar

Oddiy va murakkab variantlar

Guruhli va individual ishlar. Bu metod orqali o'qituvchilar o'quvchilarning bilim salohiyatini tekshiradi. Shuningdek, ularni rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'qitishni ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda bugungi kunda axborot texnologiyalarining o'rni;

Interaktiv dasturlar orqali bolalarni o'qitish

Mobil ilovalarda tushuntirishlar olib borish

Multimedial taqdimotlar orqali o'qitish

Axborot texnologiyalari orqali o'quvchilarning o'rganish imkoniyati yanada kengayadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv talimga muhtoj o'quvchilarga til o'rgatish nafaqat talim berish o'qituvchidan juda katta matonat, sabr, mahorat va innavatsion yondashuv talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchilar qo'llagan har bir metod ularning rivojlanishi uchun samarali va foydali hisoblanadi bundan tashqari, individual yondashuv kommunikativ o'qitish metodlari o'yin texnologiyalari va zamonaviy vositalardan foydalanish o'quvchilardagi qiziqishni uyg'otadi va har bir o'quvchining o'rganishi uchun teng imkoniyat yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi 'Ta'lim to'g'risida'gi qonuni
2. Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmalar [Language Teaching Methodology]
3. Inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy adabiyotlar [Jermy Harmer, "How to teach English"]

